

Loyihalarni har bir tuman va mahalla kesimida tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 1-fevral kuni investitsiya sohasiga doir avvalgi topshiriqlar ijrosi va yangi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Joriy yil 11-yanvar kuni tijorat banklari tomonidan jami qiymati 1 milliard dollar bo'lgan investitsiya loyihalari hamda Toshkent shahar hokimligi tomonidan jami qiymati 8,6 trillion so'm bo'lgan 9 ta yirik sanoat loyihasi taqdimot qilingan edi.

Davlatimiz rahbarining ko'rsatmasiga muvofiq, mazkur loyihalarni sifatli amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar, muddatlar va mas'ullar belgilangan "yo'l xaritalari" ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan qo'shimcha ravishda yangi investitsiya loyihalari tayyorlandi. Taqdimotda ushbu yangi loyihalar haqida ma'lumot berildi.

Xususan, 10 ta yirik tijorat banki tomonidan jami qiymati 1,5 milliard dollar bo'lgan 136 ta yangi loyiha takliflari ishlab chiqildi.

Xususan, Agrobank tomonidan to'qimachilik klasterlari bilan birgalikda qo'shimcha 43 ta loyiha shakllantirilgan. Jami 501 million dollarlik ushbu loyihalar natijasida paxta tolasini qayta ishlash darajasi ancha oshib, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lami kengayadi.

Milliy bank tomonidan joriy yilda 225 million dollarlik 6 ta yangi loyihani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Misol uchun, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy hamda Namangan viloyatlarida polivinilxlorid va alyuminiy romlar ishlab chiqarish, poytaxtimiz va Toshkent viloyatida poyezd vagonlari hamda yuk mashinalariga xizmat ko'rsatuvchi transport-logistika markazini tashkil qilish loyihalari shular jumlasidandir.



Manba